

**SHARQ UYG'ONISH DAVRI FALSAFASIDA PERIPATETIKLARNING
AXLOQIY QARASHLARI VA ULARNING AHAMIYATI**

Eshonqulova Dilshoda Said qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish

metodikasi (ma'naviyat asoslari) yo'nalishi

1-kurs magistranti

Elektron pochta: dilshodasaidovna7@gmail.com

Orcid raqam: <https://orcid.org/-0006-6388-1281>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sharq uyg'onish davrining yirik peripatetiklari xususan Abu Nasr Farobiy, Ibn Sinolarnig axloqiy-falsafiy qarashlari va ularning g'oyalari tahlil qilinadi. Peripatetika maktabi tomonidan olg'a surilgan aql va axloq uyg'unligi komil inson konsepsiyasi shuningdek ma'naviy va ruhiy barkamollik talqinlari ko'rib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *peripatetika, Arastu ta'limoti, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, axloq falsafasi, aql, axloq, ruh va aql munosabati, falsafiy meros, ilmiy qarashlar.*

Kirish. Jahonda ro'y bergan sivilizatsiyalar tarixida Sharq uyg'onish davri insoniyat tarixida alohida o'rin tutgan bir davr bo'lib, ilm-fan, falsafa astronomiya, tibbiyot va axloq ilmining yuksak darajada rivojlanganligi bilan ajralib turadigan bir davr hisoblanadi. Bu davr mutafakkirlarining maqomi nafaqat Sharq mamlakatlarida balki butun jahon tamaddunida ham yuksak o'rin egalladi va o'z dolzarbligi bilan ajralib turdi. Xususan peripatetiklar maktabi vakillari bo'lgan Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino singari allomalarning ilmiy falsafiy meroslari va axloqiy qarashlari Sharq ma'naviy-madaniy tafakkurining eng yuksak cho'qqisini tashkil etgan. Ushbu mutafakkirlar Arastu g'oyalarini Sharq ilmiy muhiti bilan uyg'unlashtirib yanada rivojlantirdi.

Asosiy qism. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlar xususan Farobiy Sharq uyg'onish davrining yirik mutaffakiri hisoblanadi. Abu Nasr Farobiy (873-950) Sharq peripatetik falsafasining asoschisi va tizimlashtiruvchisi hisoblanadi. Ushbu davrda Farobiy Arastu falsafasini chuqur o'rganib, uni Sharq ilmiy-falsafiy muhiti bilan uyg'unlashtiradi, peripatetika ta'limotini mustaqil o'rganib falsafiy maktab darajasiga ko'taradi. Farobiy o'rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yozgan. U turli bilimlarining nazariy va amaliy sohalariga qiziqqanligi va turli yo'nalishlarda asarlar yozganligi uchun ham uning badiiy-ilmiy merosini 2 turga bo'lib o'rganish mumkin hisoblanadi:

1)yunon faylasuflari, tabiatshunoslari ilmiy merosini targ'ib qilish va ularni o'rganishga mo'ljallangan asarlar;

2)fanning turli sohalariga oid mavzularda yozilgan asarlar.

Farobiy bir qancha yunon mutafakkirlari asarlariga sharh yozgan- Platon, Evklid, Ptolomey, Porfiylarning shuningdek Arastuni bir qancha mashhur asarlariga ham sharhlar yozgan. Arastuning "Metafizika", "Etika", "Ritorika", "Sofistika" va boshqa asarlariga sharh yozgan ularni batafsil izohlab bergan holda, bu asarlarning mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. O'rta va Yaqin Sharq ilg'or mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda, ularni Arastu g'oyalari ruhida tarbiyalashda Farobiy sharhlari muhim ahamiyatga ega. Farobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqdagina emas balki o'rta asr Yevropasini ham yunon ilmi bilan tanishtirishga zamin yaratdi. Ushbu faoliyat uning ilmiy faoliyatining birinchi bosqichi hisoblanadi va bu bosqich Farobiy uchun o'ziga xos maktab vazifasini bajaradi. Farobiy asarlari XII-XIII asrlardayoq

lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga keyinchalik boshqa tillarga ham tarjima qilingan. Farobiy tabiiy va ijtimoiy fanlarni vazifasi va amaliy ahamiyatiga ko'ra to'g'ri farqlagan. Matematika, metafizika, tabiatshunoslik fanlari inson aqlini bilimlar bilan boyitishga xizmat qilsa, mantiq, grammatika, she'riyat kabi ilmlar fanlardan to'g'ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga to'g'ri tushuntirish ya'ni aqliy tarbiya uchun xizmat qiladi. Siyosat, axloq ta'lim tarbiyaga oid bilimlar esa kishilarning jamoalarga birlashuvini, ijtimoiy hayotga tegishli qoidalarni o'rgatadi.

Ilm, bilim olish va aql haqidagi ta'limot Farobiy asarlarida izchil va mukammal tarzda tushuntirib berilgan hisoblanadi. Farobiy "Ilm va san'at fazilatlarini" risolasida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, sifatlardan aksidenstiyadan substansiya-mohiyatga qarab borishini ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishini ta'kidlaydi.

Farobiy "Aql ma'nolari haqida risolasida" aql masalasini chuqur tahlil qilib, aql bir tomondan ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan tashqi ta'sir ta'lim-tarbiyaning natijasi ekanligini uqtiradi. Farobiy peripatetik falsafada ilm va aql masalalariga alohida e'tibor qaratgan va bunga ko'ra bilish jarayonida aql markaziy o'rinni egallaydi. Va inson kamoloti aql bilan bog'lanish orqali ro'yobga chiqadi. Bu g'oyalar keyingi Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Farobiyning aql umuman bilish haqidagi ta'limotida mantiq ilmi muhim o'rin tutadi. "Mantiq san'ati kishiga shunday qonunlar haqida ma'lumot beradiki, - bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sog'lom fikr yuritishni

o'rganadi"¹-deya fikr bildiradi Jumayeva N. A o'zining Sharq allomalarining ilmiy merosi o'quv qo'llanmasida. Mantiq bu insonning sog'lom fikrlashini dunyoqarshini rivojlantirish bilan bir qatorda to'g'ri va aniq xulosalar chiqarishga undovchi san'at turi sifatida ifodalaydi. Farobiyning aql, bilish, mantiq haqidagi fikrlari uning inson haqidagi ta'limotlari uchun zamin bo'ldi. Farobiy aqlli inson haqida gapirib bunday yozadi: "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular o'tkir fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo'r iste'dodga ega, yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar".² Bunday kishilarni Farobiy oqil insonlar deb ifodalaydi. Ushbu fikrlar Jumayeva N. A ning Sharq allomalarining ilmiy merosi o'quv qo'llanmasida yanada keng yoritilgan ya'ni aqlli insonlar har taraflama jamiyatning asosiy qobig'i ular hayotini foydali ishlarga bilim ilmiy izlanishlarga ajratadi bunday insonlar jamiyatni rivojlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Forobiy o'rta asrlar sharoitida birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta'limot yaratadi. Bu ta'limotda ijtimoiy hayotning ko'p masalalari davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va yashash, mehnat va boshqa munosabatlarni qamrab oladi.

Abu Ali ibn Sino Sharq uyg'onish davri falsafasida peripatetika ta'limoti va maktabini rivojlantishda Farobiy ilmiy merosini yanada chuqur o'rganib, uni yanada rivojlantirgan va mukammal falsafiy tizim darajasiga ko'targan mutafakkirdir. Ibn Sino Arastu falsafasini Sharq ilmiy-madaniy muhitga moslashtirgan holga axloqiy masalani mustaqil va izchil davom ettirgan. Ibn Sino

¹Jumayeva N. A. Sharq allomalarining ilmiy merosi.- Toshkent,2022.- B.76.

² Jumayeva N. A. Sharq allomalarining ilmiy merosi.- Toshkent,2022.- B.77.

asarlarning umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bugungi kungacha 160ga yaqin asari yetib kelgan. Ko'p risolalari ko'chib yurishlar, feodal urushlari, saroy to'palonlari, turli falokatlar sababli yo'qolib ketgan. Ibn Sino asarlari o'rta asrlarda Yevropada ilmiy til hisoblangan lotin tiliga, u orqali Yevropaning boshqa tillariga tarjima etilgan. Ibn Sino ilmiy risolalardan tashqari, chuqur falsafiy mazmunli badiiy obrazlar va ma'lum voqealar orqali ifodalangan "Tayr qissasi", "Salomon va Ibsol", "Hay ibn Yaqzon kabi falsafiy qissalar yaratgan.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uning "Ash-Shifo" asarida keng rivojlangan 3ta katta sohaga metafizika, fizika, mantiq kabi sohalarda ifodalangan. U "Kitob ash-shifoda", shunday yozadi: "Zaruriy vujudan kelib chiqqan vujudlar undan uzoqlashgan sari mustaqil bo'la boradilar, lekin o'zlarining boshlang'ich sabablarining hislatlarini saqlab qoladilar va ular keyingi vujudlar uchun sabab bo'ladilar"³ degan fikrlarini Namozov B. Sharq allomalarining ilmiy merosi o'quv qo'llanmasida keltirib o'tadi va aynan shu orqali zaruriy vujudan kelib chiqadigan vujudlar qanchalik uzoqlashsa undan yanada mustaqil bo'lib borish bilan bir qatorda o'zining ilk sababiyati va hislatini yo'qotmasligini va shu orqali keyingi vujudlar uchun asos bo'lishini anglashimiz mumkin. Ibn Sino insonni tana va jondan tashkil topadi deydi.

Miya esa jonni boshqaruvchi asosiy va markaziy qismidir. Uning fikricha, hasharotlar o'simliklar, hayvonlar va insonlar qandaydir ichki kuch -jonga egadirlar. Shuning uchun inson fikrlash hislatiga mavhum tushunchalarni o'zlashtirish ularni qayta anglash, maqsadli faoliyatlarini amalga oshirish qobiliyatiga egadirlar. Inson aqli jonning oliy darajadagi ifodasidir. Inson mavjudot

³ Namozov B. Sharq allomalarining ilmiy-ma'naviy merosi. Buxoro-2022. B.140.

mohiyatini bilishi uning tafakkurining dunyoviy aql bilan qo'shilishi asosida vujudga keladi. Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlar va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak, deb ta'kidlaydi. Jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligi ta'kidlanadi. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunlarga itoat etishlari, qonunni buzishsa va adolatsizlikka yo'l qo'yilganda jazolanishi kerak deya ta'kidlanadi.⁴

Ibn Sinoning ko'p tarmoqli ilmiy izlanishlari tufayli nafaqat Sharqda balki butun dunyo jamiyatida munosib mavqeyga ega shaxs hisoblanadi. Uning asarlari XII asrdan Yevropada lotin tiliga tarjima qilina boshladi. Xususan u ijtimoiy-falsafiy masalalarda Farobiy qarashlarini davom ettirdi. Ilg'or falsafiy oqimni yangi tabiiy ilmiy fikrlar bilan boyitti va rivojlantirdi.

Sharq uyg'onish davri falsafasida peripatetizm maktabi uning shakllanishi va axloqiy tafakkurning shakllanishi shuningdek rivojlanishida Abu Nasr Farobiy uning qarashlarini davom ettirgan va yangi bosqichga olib chiqqan Abu Ali Ibn Sinolar peripatetizmning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'sha olgan mutafakkirlar hisoblanadi. Peripatetiklarning axloqiy qarashlari Sharq uyg'onish davri falsafasining yuksak darajada rivojlanganini ko'rsatib berdi. Ularning axloqiy qarashlari keyingi davr olimlari va mutafakkirlari uchun asos bo'lib xizmat qildi va bu falsafiy qarashlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

⁴ O'Zr Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik Instituti. Ma'naviyat Yulduzlari Toshkent 1999

1. Farobiy A. N. Fozil odamlar shahri.-Toshkent: Fan 1993.
2. Jumayeva N. A. Sharq allomalarining ilmiy merosi.- Toshkent,2022.-
76-bet.
3. Jumayeva N. A. Sharq allomalarining ilmiy merosi.- Toshkent,2022.-
76-bet.
4. Namozov B. Sharq allomalarining ilmiy-ma'naviy merosi. Buxoro-
2022, 140-bet.
5. O'Zr Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik
Instituti. Ma'naviyat Yulduzlari Toshkent. 1999.